



OMON MATJON ASARLARINING LINGVOKULTUROLOGIYASI

Xudaybergenova Nilufar Baxtiyor qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

Nilufarxudaybergenova404@gmail.com

Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson anashu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki til ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetga ega bo'lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi **lingvikulturologiya** jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rgnadigan alohida ilmiy soha sanaladi.⁷ Umumman olganda, xalq tilida ishlatiladigan har bir birliklar lingvomadaniy birliklar sanaladi. Bu sohani Omon Matjon ijodini tadqiq qilish asnosida yanada tushunib olsak.

Shoirning “2- 3 yanvar, Xorazm” she'rida o'zbek xalqining kuch-qudrati, ruhiyati, tabiat bilan qorishqan holda tasvirlanadi, ya'ni o'zbek xalqining hissiy kechinmalari tabiat, tabiat hodisalari asnosida ko'rsatib beriladi. Mazkur she'rda shoir milliy mintalitetga oid xoslikni ta'minlovchi milliy-madaniy shevaga xos so'zni ishlatadi.

⁷ Mahmudov.N – tilning mukammal tadqiq yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti.- T, 2012.-№5. – B. 10

Xorazmda qor yuqidan **og'ochlar** sindi.

Kun-tun falak tegirmoni muz sepdi go'yo.⁸

Ya'ni xorazm dialektikasiga doir bu so'z, adabiy tilda "yog'och" ma'nosini beradi. Bu o'rinlarda shoir she'rida sheva qo'llashi Xorazm farzandi ekanligi va o'z asarlarida buni namoyon qilishi lingvomadaniyatning bir ko'rinishi.

„Kuzda men har holda tabiatda ham” she'rini qaraydigan bo'lsak, bu she'rda millatning orzu-umidi yana tabiatga uyg'unlashadi. Xalqning qalbidagi pokiza niyatlari dehqon qizi orqali tasvirlanadi.

Undagi bosiqlik xayo olmasi

Kuzakning kimiga balki qarindosh.

O'z qizlik rejasi bilan ishlaydi

Uning qalbidagi bokira quyosh.⁹

Bu jumalalarda, qo'llangan "xayo olmasi" so'zini qaraylik: bilamizki olma meva. Xayo olmasi deyilganda esa, o'zbek mehnatkash ayollarining va qizlarining ibo-hayosi ifodalangan.

“Bahor hazili”she'rida: millatning, yurtning mehnatkash aholi tomonidan yetishtirilgan ne'matlar va narsalar yumoristik tarzda aytib o'tiladi. Masalan,

“ Paxtang bormi – mana temir!

Pillaga – shakar!

Ana o'rmon, kesib obket qovun qoqiga!

Agar jindek xavfing bo'lsa, unga ol xatar!

Yuduzingni alish anu falak toqiga..”¹⁰

⁸ Omon Matjon,,Qush yo'li''. Cho'lpon.-T:1993. 4-bet.

⁹ Omon Matjon,,Qush yo'li''. Cho'lpon.-T:1993.8 -bet.

¹⁰ Omon Matjon,,Qush yo'li''. Cho'lpon.-T:1993.14 -bet.

Paxta, pilla, qovun, qovun qoqi kabi o'zbek xalqining asosiy milliylikini ko'rsatuvchi noz-
ne'matlar o'zbek kishilarining qora kunlari va odatiy turmush tarzi bahor fasli orqali hazilomuz
tarzda yoziladi.

“Qush yo‘li” dostonida esa, o‘zbek xalqining milliy madaniy tarixini aks ettiradi.

Mazkur asarda ko'rsatib o'tilgan toponimlar(G'alla orol cho'llari , baxmal tog'lari
Farg'ona, Surxon, Namangan, Xorazm, Buxoro) va ularga xos jihatlar, shuningdek, o'sha
hududda yashovchi aholining turmush tarzi, chin insoniy xususiyatlarning ulug'lanishi hamda,
ularga qarama-qarshi illatlarning qoralanishi ko'rsatilganligi Otajon Matjon asarlarida
lingvomadaniyat beqiyosligini ko'rsatadi. “Qush yo‘li” dostonida o'zbek yurtining urf-
odatlar, bayram ,marosimlari, tarixiy mo'tabar shaxslari, tabiat hodisalari hamda, hayvonot
olami, muqaddas sanagan qushlari eng tasirchan manzaralar asnosida jonli o'ziga xos milliy
ruh bag'ishlangan holda milliy madaniy mintalitetining turli xil qirralari aks etgan.

Masalan,

“Ko'kda ohangrabo xabar yo'li bor,

Buning siri faqat qushlarga oshkor.

Yig'ilib keldilar turfa olamdan

Biri Farg'onadan, biri Surxondan,

Qashqa, Namangandan elchilar keldi,

Olis Xorazmdan yo'lg'achilar keldi.

Ha,ogoh bo'lishib qutlug' bayramdan,

Bobo Turkiston, momo Sayramdan,

Garchi kelgandan kelmagani ko'p,

Bunday kunlar nasib qilamganlar ko'p...”¹¹

¹¹ Omon Matjon,,Qush yo'li''. Cho'lpon.-T:1993.32-33 -bet.

Bu jumalardagi toponimlarni ko‘rishimiz mumkinki, barcha hudud bir bayram uchun kelganliklarini va urf-odatlarini bajarishga yig‘ilganliklari yuqoridagi fikrlarimiz ifodasidir.

Mazkur asarda yana shuni ko‘rishimiz mumkinki, asarda shunday lisoniy birliklar borki ular oddiy hayotiy turmushni ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Masalan,

“Tabiatning noyob hikmati – Baxmal

O‘zbeklar yurtining jannati - Baxmal

Oq sochiq o‘ralgan ko‘k novvot – tog‘i,

Ko‘k choynakdan oqqan gulob – bulog‘i.”¹²

Mana bu misralarda va undan keying misralarda uchraydigan novvot, non, gulob va undan keyin o‘simlik olamiga ulangan jumalarda keltirilgan narsa-hodisalar o‘zbek yurtini tabiatini va har bir bayramlarda sodir bo‘ladigan o‘ziga xos voqealar va ularga uyg‘unlashgan tabiat mo‘jizalari o‘z milliy ifodasini topgan.

Umuman ,Omon Matjon asarlarini tahlil qilar ekanmiz, shoirning asarlarida xalq, millat ruhining naqadar kuchi ekanligiga amin bo‘lamiz. Yozuvchi xattoki, mayda detallargacha milliylikni singdra bilagan va o‘sha narsalar orqali o‘quvchi ko‘z o‘nggida xalqning milliy qiyofasini yarata bilgan. Shoir asarlarini lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish o‘zbek millatining ma‘naviy, milliy ongining o‘ziga xosliklarini, qadryatlar tizimi mohiyatini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi asarida qo‘llagan lingvomadani birliklar, ularda aks etgan milliy –obrazli tafakkurni tahlil etish muallif asarida milliy o‘ziga xos nigohni yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov.N – tilning mukammal tadqiq yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti.- T,2012.-№5. – B. 10

¹² O‘sha asar 33-bet

2. Omon Matjon,,Qush yo'li''. Cho'lpon.-T. :1993
3. Omon Matjon "Ming bir yog'du". G'afur G'ulom. -T.: 1989
4. <https://ilmlar.uz>
5. <https://kh-davron.uz>
6. <http://n.ziyo.com>

